



## **XALQARO TAJRIBA YORDAMIDA BIZNES INNOVATSIYALAR VA TADBIKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Maxmudova Surayyoxon Madamin qizi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14613719>

### **Annotasiya**

Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanishi kambag'allikni qisqartirishning muhim omili ekanligi bo'yicha ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik faoliyati, ayniqsa, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, o'zini o'zi band qilish orqali o'z tadbirkorligiga ega bo'lish borasida tegishli takliflar ishlab chiqilgan. Kichik biznes subyektlari faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning dolzarb masalalari tadqiq etilgan. Innovatsion texnologiyalarning kichik biznes rivojlanishiga ta'siri va samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Kichik biznesda raqamli texnologiyalarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari - elektron savdo, CRM va ERP tizimlari, bulutli xizmatlar, onlayn banking, avtomatlashtirish tizimlari samaradorligi asoslangan. Tadqiqot natijalari asosida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'z:** kichik biznes, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, samaradorlik, rivojlanish tendensiyalari, raqamli transformatsiya.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar o'tkazilib kelinmoqda, kichik biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, kichik biznesga ko'maklashuvchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Natijada bugungi kunga kelib, kichik biznes sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, iste'mol tovarlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, servis xizmatlari ko'rsatish va turizm kabi sohalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini yana-da yaxshilash, barqaror rivojlanish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar, strategiyalar, konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2026 yil oxiriga qadar mamlakatda kambag'allik darajasini ikki barobarga



kamaytirish rejalashtirilmoqda. Kambag'allikni qisqartirishning bosh omili sifatida tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlik, o'zini-o'zi band qilish xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, tadbirkorlikni yana-da rivojlantirish yo'nalishlari, kambag'allikni qisqartirish yo'llari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borilgan.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilanishi bilan birga bu boradagi ilmiy ishlar ham jadallashdi. Iqtisodiyot sohasining ilmiy mutaxassis va olimlari tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, N.Ernazarova esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiysi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalari, jumladan, oilaviy biznes sohasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o'rinni egallashi haqidagi fikrni ilgari surgan .

So'ngi yillarda iqtisodchi ilmiy izlanuvchilar, tegishli vazirlik mutaxassislari tomonidan davlatimizda kambag'allikni qisqartirish masalasida keng ko'lamli izlanishlar olib borishmoqda. Xususan, i.f.d. M.Kalonov o'zining ilmiy taxliliy maqolasida "kambag'allik" tushunchasini shu kungacha "yopiq mavzu" bo'lib kelganligini va u "kam ta'minlanganlik", "ehtiyojmandlik", degan tushunchalardan farq qiladi, deya ta'kidlagan .

O.X.Maxmudov tomonidan oilalarda kambag'allikni qisqartirish omillari, xususan, xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish mumkinligi tadqiq qilingan .

Tadbirkorlikni yana-da rivojlantirish masalalari bo'yicha yetarli darajada mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi Sh.Quvondiqovning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida marketing muammolari , sotuv kanallarini tashkil etish, sotuvdan keyingi xizmatlarni rivojlantirish, ulgurji savdo xizmatida mijozlarga xizmat ko'rsatish masalalari D.H.Xolmamatov tadqiqotlarida tadqiq etilgan . Mazkur tadqiqotlarda ham tadbirkorlik faoliyatida yangi ish o'rinlari ochilishi, aholi bandligini ta'minlashi, aholi daromadlarini oshishi kabi masalalar tadqiq qilingan.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida jahon mamlakatlari milliy xo'jaligi negizini xususiy mulkchilikka asoslangan kichik va o'rta tadbirkorlik tashkil etmoqda va bu jarayonni o'rganish, tahlil etish hamda ulardagi ijobiy tajribalardan oqilona foydalanish g'oyat muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida bu sohada amalga



oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlarning ko'lamini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida xo'jalik yuritishga o'tayotgan mamlakatlar uchun ibratlidir va ular tajribasidan u yoki bu darajada foydalanishni shu kunning o'zi taqozo etadi. Bu jarayon O'zbekiston iqtisodiyoti uchun obyektiv zaruriyatdir.

Rivojlangan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati subyektlari soni XX asrning 70-yillari o'rtalaridan boshlab jadal ko'paya boshladi. Bugunga kelib, ulardagi mikrofirmalar va kichik korxonalar salmog'i xo'jalik yurituvchi subyektlarning 70,0-90,0%ga yetadi. Ular ko'pgina davlatlarning milliy iqtisodiyotida ish bilan bandlar soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi bo'yicha yetakchi rol o'ynaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati mehnat sig'imi ko'p talab etiladigan, ijtimoiy mehnatni tashkil qilishning ulkan sohasi bo'lganligi bilan ham juda ahamiyatlidir.

Jahon amaliyoti kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati bozor iqtisodiyotining raqobat muhitida o'z afzalliklarini to'la namoyon etishga qodirligini isbotlagan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning jamiyat hayotidagi o'rni, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati ham shunchalik salmoqli bo'ladi. Shu bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati salohiyatidan yirik biznes bilan mushtaraklikdagina samaraliroq foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqida 20,0 mln.dan ko'proq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyat olib borib, 90,0 mln.ga yaqin odamni ish bilan ta'minlamoqda. Bu korxonalarning 99,8% ida (ulardan 91,8% i yollanma xodimlar soni 10 kishidan kam bo'lgan mikrofirmalardir) 250 tagacha odam ishlaydi. Bu toifadagi subyektlar hisobiga jami ish joylarining 67,4%i to'g'ri keladi.

Yevropa Ittifoqida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati subyektlari uchun turli soliq imtiyozlari belgilangan. Bunda ularning ko'lamini, ishlab chiqarishning yo'nalishi va boshqa omillar hisobga olinadi. Masalam, Yevropa Ittifoqida mablag'i aylanmasi 2,0 mln. yevrodan kam bo'lgan barcha korxonalar qo'shimcha qiymat solig'ini mahsulotni realizatsiya qilgandan so'ng to'laydi.

2013-yilda Yevropa Ittifoqi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati subyektlarini kreditlash yo'li bilan yoshlarni ish bilan ta'minlashga yo'naltirilgan yangi choralarni amalga oshirishga kirishdi. Yevropa Kengashining raisi Xerman van Rompeyning ta'kidlashicha, -Yoshlarning ish bilan bandligi tashabbusi||



loyihasi uchun 8,0 mlrd. yevro ajratiladi. Ayni paytda iqtisodiyotda ish bilan bandlarning aksariyat ko'pchiligi mehnat qilayotgan kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash yanada kuchaytiriladi. Bu dasturni moliyalash uchun ham Yevropa Ittifoqi byudjeti mablag'laridan, ham Yevropa investitsiya banki kreditlaridan foydalaniladi.

Yevropada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati eng taraqqiy etgan mamlakat Italiya hisoblanadi. Ushbu davlat tajribasi milliy iqtisodiyot barqaror o'sishini va o'tkir muammo – ortib borayorgan ishsizlik muammosini hal etishning asosiy vositasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati rivojlantirish ekanligini yaqqol dalolatdir. Mamlakatdagi 4,0 mln.dan ortiq korxonaning 98,0%i kichik va o'rta biznes subyektlaridir. Mikrofirmalarning o'zi jami korxonalarning 60,0%ini tashkil etadi.

Italiya 3,5 mln. ta kichik va o'rta korxona faoliyat ko'rsatadi. Ularda 13,0 mln. aholi yoki ish bilan bandlarning deyarli 79,0%i mehnat qiladi. Ular hissasiga mamlakat yalpi milliy mahsuloti hajmining 52,0%i to'g'ri keladi. 2-3 kishi ishlaydigan kichik hunarmandchilik firmalari esa Italiya eksportning 18,0%ini ta'minlamoqda.

Buyuk Britaniyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati subyektlari mezonlari sifatida yillik aylanma va iqtisodiyot turli tarmoqlarida ish bilan bandlar soni belgilangan. Bu mamlakatda kichik firmalarga korporatsiyalarga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash, qo'shimcha qiymat solig'i va mahalliy soliqlarni to'lashda imtiyozlar berish, kreditlarni to'lashni kechiktirish kabi imtiyozlar belgilangan.

Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun - Spring agentligi tashkil etilgan. Singapurda yagona hisoblangan mazkur agentlik tadbirkorlarga yordam ko'rsatishga qaratilgan 100 taga yaqin dasturni amalga oshiradi. Birinchi bor o'z biznesini ochayotgan tadbirkorlarga alohida imtiyozlar ko'zda tutilgan. Bu - imtiyozli kreditlar ajratish, ularni sug'urta qilish, subsidiyalar taqdim etish va hokazolardir. Xodimlar soni


10 tadan oshmaydigan mikrofirmalar qo'shimcha imtiyozlarga egadir.

Davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati subyektlarida mehnat qilayotgan xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish uchun xarajatlarning 90,0 %ini qoplaydi. Buning uchun mamlakatda davlat, shuningdek, xususiy ta'lim muassasalari tashkil etilgan. Kichik korxonalar xatto o'zlari uchun kerakli chet ellik mutaxassisni davlat hisobidan firmalarga taklif etish huquqiga ega.



Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatini rivojlantirish orqali ish bilan bandlik sohasida faol siyosat olib borishning bu va boshqa tadbirlarini ish bilan ta'minlash bo'yicha davlat funksiyalari (yangi ish o'rinlari yaratish yoki yangi ish o'rinlarini yaratishni qo'llab quvvatlash), deb hisoblash kerak. Iqtisodiyotning bu sektoridagi raqobat tovar va xizmatlar narxnavosini barqaror ushlab turishga, tadbirkorlarni mahsulot sifatini muttasil yaxshilab boorish va yangi texnologiyalarni joriy qilishga undaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining ulkan salohiyati uni moddiy, moliyaviy va inson resurslari va kapitali qatori ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri sifatida hisoblash imkonini beradi.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatini jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu toifadagi subyektlar yildan-yilga o'z mavqeini mustahkamlab borishi natijasida, mahalliy xomashyo negizida eksportbop yoki impoprt o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, iste'mol bozorini sifatli tovarlar bilan to'ldirish, aholini ish bilan band qilish, jamiyatga esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash vazifalari samarali amalga oshirilmoqda. Bu boradagi muhim vazifa, umuman olganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu asosida aholining bandligini va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan iboratdir.



**1-rasm Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining  
rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar**



Davlat tomonidan olib borilayotgan tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini takomillashtirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining tadbirkorlik faolligini oshirish jarayonidagi muammolarni aniqlash, bu borada to'plangan xorijiy tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan biz Osiyo mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati va tadbirkorlikni rivojlantirish amaliyotini tahlil qilib chiqdik (1-rasm)

Osiyo mamlakatlarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda katta tajriba to'plangan. Xususan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha. Yaponiyada davlat bilan birgalikda korporativ va jamoa tashkilotlari ham kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatida o'z ixtiyorlari bilan faol ishtirok etishadi.

Yaponiyaning kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha huquqiy-me'yoriy bazasi, uning manfaatlari hamda huquqlarini himoya qilish bo'yicha antimonopoliya siyosati, shuningdek, faoliyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'z-o'zini boshqarish organlari to'plagan tajriba O'zbekiston uchun qimmatli hisoblanadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan inqirozga qarshi choralar dasturida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati bilan bog'liq qator muhim tadbirlar belgilangan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari boshqa mamlakatlar darajasiga yaqinlashib borayotganligi respublikamizda ushbu sohaga jiddiy e'tibor va u faoliyat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganidan dalolat beradi.

Tadbirkorlar mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilayotganiga qaramasdan, yaratilgan imkoniyatlardan hali to'liq foydalanilmayotgan holatlar ham mavjudligidan dalolat beradi. - O'zbekiston aholisining har 1000 nafariga 16,2 birlik kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati korxonasi to'g'ri kelsa, Yevropa Ittifoqi davlatlaridan aholining har 1000 nafariga 37-46 birlik kichik korxona to'g'ri keladi. Demak, respublikamizda korxonalar sonining o'sishiga qaramay, hali ularning taraqqiy etgan mamlakatlar darajasiga yetmaganligini ko'rish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining texnik jihozlanish darajasi, tarkibiy tuzilmasi va xususiy tadbirkorlikning rivojlangan sanoat sohasidagi o'rni past – 12,9% darajasida saqlanib turibdi.

Yaponiya sanoatining o'zagini yirik korxonalar va ularning pudratchilari, ularga xizmat ko'rsatuvchi kichik va o'rta korxonalar tashkil etadi. Ya'ni, ishlab chiqarish hajmi va miqdorining o'sishi bir tomondan, yirik korxonalar



operatsiyalari hajmini kengaytirib, yangi-yangi kichik korxonalar vujudga kelishiga olib kelmoqda. Kichik va xususiy biznesni rivojlantirish va uning yirik biznes bilan hamkorligini kuchaytirish imkoniyati, salohiyati respublikamiz miqyosida mavjud bo'lib, lekin undan to'liq foydalanilmayapti. Respublikamizdagi o'z ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalana olmayotgan yirik korxonalarning ishlab chiqarish vositalari hamda maydonlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatiga ijaraga bergan holda hamkorlikda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish jarayoni rivojlantirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yaponiyada - venchur biznesni rivojlantirishga ilmiy izlanish bilan shug'ullanadigan oily o'quv yurtlari olimlari ham keng jalb qilingan. Yaponiya hukumati ilm va amaliyotni muvofiqlashtirish jarayonini tezlashtirish maqsadida professor va ilmiy xodimlarga - venchur biznes firmalar tuzishga yoki shunday firmalarda ishlashga ruxsat berib quygan. Masalan, Tokio universiteti bir yil davomida hamkorlik shaklida o'rtacha 100 dan ortiq loyiha tayyorlaydi, - Keyou universiteti esa, 20 ta Davlatimiz rahbarining 2016-yil 19-sentabrdagi "Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzurida O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risida" gi qarori bu borada tashlangan faol qadamlardan yana biri sanaladi. Yaponiya bilan ilm-fan, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va boshqa masalalarda yo'lga qo'yilgan hamkorlik doirasida tashkil etilgan O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi bugungi kunda bir qator vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

Xususan, yosh mutaxassislar va talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish hamda ularning ilmiy va texnikaviy g'oyalarini sanoat namunalari, uskunalari, texnologik jarayonlar va yechimlarda mujassamlashtirish, yosh olimlarning ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshirishlari uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, ular tomonidan o'tkaziladigan tadqiqot ishlarining yuqori darajada sifatli bo'lishini ta'minlash, innovatsion faoliyat natijalarining transferi va tijoratlashtirilishi, startup loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish shular jumlasidandir.

So'nggi yillarda markaz dunyo ilmiy hamjamiyatiga qo'shilish yo'lida qator qo'shma loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Pandemiya sharoiti sabab tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha mahalliy va xorijiy tashkilotlar, ilmiy va ta'lim muassasalaridan kelib tushadigan buyurtmalar asosida qo'shma eksperimental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borish borasida muhim uchrashuvlar va muzokaralar onlayn tarzda o'tkazilmoqda.



Xususan, 2021-yilning iyul, avgust oylarida Yaponiyaning Kyushu universiteti olimlari ishtirokida ekologik omillarni hisobga olgan holda yuqori samarali qazib olish texnologiyasini yaratish loyihasi yuzasidan onlayn muzokara bo'lib o'tdi. Muzokara doirasida ushbu qo'shma tadqiqotlarda ishtirok etish uchun mamlakatimiz yosh olimlari, magistrLAR, talabalar hamda Navoiy kon-metallurgiya kombinati DK muhandis olimlaridan iborat jamoani o'zaro tajriba almashish uchun Yaponiyaga yuborish bo'yicha anglashuv memorandumini imzolanishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, markaz olimlari Keio universiteti bilan hamkorlikda Yaponiya fan va texnologiyalar agentligi tomonidan e'lon qilingan tanlovda "Havoning ifloslanishini ko'zatish texnologiyasi" qo'shma amaliy loyihasi bilan ishtirok etmoqda.

Bu boradagi hamkorlik yildan yilga faollashib boryapti. O'tgan qisqa vaqt davomida yurtimizning bir qancha iqtidorli yoshlari Yaponiyaning nufuzli universitetlarida malaka oshirib qaytdi. Zero, Yaponiyaning ilg'or ilm-fan, texnologiyalari tajribalaridan keng foydalanib, ijobiy samara beradigan usullarini mamlakatimizni rivojlantirish yo'lida qo'llash orqali zamonaviy innovatsiyalar barqarorligiga, salohiyat jihatdan jozibadorlikka erishamiz.

Yaponiyada kichik va o'rta biznes tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 80 foizi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa 50-60 foizi ishlaydi

Yaponiyada asosiy e'tibor yirik biznes bilan kichik va o'rta biznes o'rtasida kooperativ aloqalar tizimini shakllantirishga qaratildi. Iqtisodiyotning mazkur bo'g'ini mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'ini bermoqda.

Aynan shunday iqtisodiy siyosat natijasida Yaponiyada islohotlarning boshlang'ich davrida aholi jon boshiga 500 AQSH dollari miqdorida daromad to'g'ri kelgan bo'lsa hozirga kelib bu ko'rsatkich 38 ming dollarga yetmoqda. Bu – dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Yaponiyada asosiy e'tibor yirik biznes bilan kichik va o'rta biznes o'rtasida kooperativ aloqalar tizimini shakllantirishga qaratildi. Iqtisodiyotning mazkur bo'g'ini mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'ini bermoqda.

Aynan shunday iqtisodiy siyosat natijasida Yaponiyada islohotlarning boshlang'ich davrida aholi jon boshiga 500 AQSH dollari miqdorida daromad to'g'ri kelgan bo'lsa hozirga kelib bu ko'rsatkich 38 ming dollarga yetmoqda. Bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.



**1-jadval**

**Osiyo va g'arb rivojlangan mamlakatlarida kichik va o'rta biznes  
korxonalarida mehnat qilayotgan ishchilar ulushi**

| <b>Davlatlar</b>    | <b>Kichik va o'rta biznes<br/>korxonalarida band ishchilar<br/>ulushi, %</b> |
|---------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| Yaponiya            | 79,9                                                                         |
| Koreya Respublikasi | 80,5                                                                         |
| Tayvan              | 77,2                                                                         |
| AQSH                | 50,7                                                                         |
| Buyuk Britaniya     | 58,5.                                                                        |

Mamlakatimizda 2023 yilning yanvar-martida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 5496,4 ming so'mni (yoki 484,6 AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi. Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2019 yilning yanvar-martida 33 316,1 ming kishi,

2020 yilning yanvar-martida 33 970,8 ming kishi,

2021 yilning yanvar-martida 34 627,2 ming kishi,

2022 yilning yanvar-martida 35 352,5 ming kishi va 2023 yilning yanvar-martida 36 111,4 ming kishini tashkil etgan .

Respublikamizdagi korxonalarning YaIMdagi ulushini oshirish uchun xorijiy mamlakatlarning tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish borasidagi ilg'or tajribasidan milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida tadbirkorlikning rolini oshirish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- agrar sektorni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ko'rish, eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarni qo'llabquvvatlash, chet el investitsiyalari hisobidan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, yangi korxonalarni tashkil etish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni kiritish bo'yicha xorijiy firma va agroklastlar bilan hamkorlikni yana-da kengaytirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan texnologiyalarni olib kelish, respublikada tashkil etilayotgan xalqaro yarmarkalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish;



- fermer ho'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yangi imkoniyatlar tug'dirish, xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarni rivojlantirish;
- qishloq ho'jaligi korxonalariga o'z mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni sotib olishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanishga ko'maklashish choralari ko'rish;
- qishloq joylarida tashkil etiladigan sanoat korxonalarini xom ashyo, elektr energiyasi, gaz bilan uzlyuksiz ta'minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarni qurishni amalga oshirish va boshqalar.

Hozirgi kunda jahon innovatsion bozorida AQSH, Yaponiya va Germaniya yetakchilik qilmoqda. Ular ilm-fanga asoslangan mahsulotlar eksportida yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Kichik korxonalarning innovatsion faoliyatdagi samaradorligi yuqori bo'lib, bu AQSH va G'arbiy Yevropa tajribasida o'z isbotini topgan. XX asrda yaratilgan 58 ta muhim ixtirodan 46 tasi aynan kichik korxonalar tomonidan amalga oshirilgan.

Kichik korxonalar ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan mablag'lardan samarali foydalanadi. 500 nafargacha xodimi bo'lgan firmalar sarflagan har bir dollar yirik korporatsiyalarga nisbatan 24 marta ko'proq innovatsiya yaratgan.

Hozirgi kunda jahon innovatsion bozorining hajmi 2.3 trillion dollarni tashkil etadi. Yetakchi davlatlar orasida AQSH 700 milliard, Germaniya 530 milliard va Yaponiya 400 milliard dollarlik ilmiy mahsulotlar eksport qilmoqda. Eng rivojlangan 7ta davlat makrotexnologiyalarning 80 foizini nazorat qiladi .

O'zbekistonda ham barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun innovatsion rivojlanish yo'lini tanlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga xususiy sektorni jalb etish va kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirish zarur. Bu raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish imkonini beradi. O'zbekistonda kichik biznes eng muhim iqtisodiy sektorlardan biri hisoblanadi. Kichik biznesdagi tadbirkorlar yangi texnologiyalarni joriy etish orqali o'z faoliyatlarini samarali qilish imkoniyatiga ega. 2023 yilda qabul qilingan davlat dasturlari kichik biznesning rivojlanishini to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, shundan kelib chiqib, davlat tomonidan 6 trillion so'm mablag' ajratilgan . Kichik tadbirkorlarning bank kreditlariga murojaat qilishida ba'zi muammolar kuzatilmoqda. Shuning uchun davlat tomonidan barqaror banklarni jalb qilish va kreditlarni arzon shaffof hamda imtiyozli shakllarda taqdim etish muhim ahamiyatga ega.



**2- jadval**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi (viloyatlar kesimida)**

| <b>Hududlar</b> | <b>2019</b> | <b>2020</b> | <b>2021</b> | <b>2022</b> | <b>2023</b> |
|-----------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Andijon         | 76,2        | 74,5        | 74,5        | 73,9        | 74,1        |
| Buxoro          | 74,9        | 74,2        | 74,2        | 74,1        | 74,8        |
| Jizzax          | 82,1        | 80,8        | 80,7        | 80,2        | 81,0        |
| Qashqadaryo     | 76,1        | 74,9        | 74,2        | 74,3        | 74,3        |
| Navoiy          | 79,7        | 78,4        | 78,8        | 77,3        | 77,0        |
| Namangan        | 78,5        | 78,1        | 78,5        | 78,2        | 77,5        |
| Samarqand       | 55,0        | 51,9        | 52,3        | 51,1        | 51,4        |
| Surxondaryo     | 82,8        | 81,6        | 82,2        | 81,0        | 80,6        |
| Sirdaryo        | 82,8        | 81,7        | 81,5        | 80,9        | 81,3        |
| Toshkent vil.   | 79,6        | 78,2        | 78,4        | 76,9        | 77,1        |
| Farg'ona        | 76,4        | 74,5        | 74,4        | 72,9        | 72,4        |
| Xorazm          | 72,8        | 70,8        | 69,8        | 70,0        | 70,3        |
| Toshkent shahar | 79,4        | 78,4        | 78,5        | 78,7        | 79,3        |

Tadbirkorlarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish zarur. Buning uchun ta'lim dasturlarini takomillashtirish, tadbirkorlar uchun treninglar tashkil etish muhimdir. O'zbekistonda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kichik bizneslarda innovatsiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga zamin yaratadi. Shuningdek, kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat dasturlari innovatsion faoliyat uchun qulay muhit yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, o'quv, moliyalashtirish va maslahat berish dasturlarini o'z ichiga oladi. Bu esa innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatini yana-da kengaytiradi.

2-jadvalda, O'zbekistonning turli hududlari bo'yicha 2019 yildan 2023 yilgacha bo'lgan kichik biznesdagi bandlik ulushi dinamikasi aks ettirilgan. Jadvalda har bir viloyat va shahar uchun besh yil davomidagi bandlik ulushi foizlarda berilgan. Jadval tahlilidan kelib chiqib, O'zbekistonning turli hududlarida kichik biznesdagi bandlik ulushida turli tendensiyalar kuzatilmoqda. Quyidagi asosiy nuqtalarni ta'kidlash mumkin: Jizzax, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida kichik biznesdagi bandlik ulushi ancha yuqori bo'lib, deyarli barqarorligini



saqlab qolgan. Bu hududlarda kichik biznes iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Andijon, Buxoro, Namangan va Toshkent shahri kabi hududlarda kichik biznesdagi bandlik ulushi biroz kamaygan bo'lsada, umumiy darajada barqarorligini saqlagan. Bu hududlarda ham kichik biznes iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida kichik biznesdagi bandlik ulushi sezilarli darajada kamaygan. Ayniqsa, Samarqand viloyatida 55.0%dan 51.4%gacha tushgani, kichik biznesning umumiy iqtisodiyotdagi ulushi pasayib borayotganini ko'rsatadi. Kamayish tendensiyasi kuzatilayotgan viloyatlarda davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni yana-da rivojlantirish va yangi investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bu hududlarda zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish va kichik tadbirkorlarning kredit olish imkoniyatlarini yaxshilash zarur.

Kichik biznes tadbirkorlarining zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishlari uchun ta'lim va trening dasturlarini kuchaytirish talab etiladi. Shuningdek, ushbu tahlillar asosida har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, barqarorlik va o'sishni ta'minlaydigan islohotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-jadvaldan ko'rinib turganidek, Andijon viloyati eng yuqori ko'rsatkichga ega (313,805.5 mln so'm, 2024 yil), Toshkent shahri ikkinchi o'rinda (28,265.6 mln so'm, 2024 yil), Xorazm viloyati ham yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etmoqda (28,435.6 mln so'm, 2024 yil). Barcha hududlarda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Eng yuqori o'sish sur'ati Andijon viloyatida qayd etilgan. Sirdaryo viloyati ham sezilarli o'sishni ko'rsatgan. Farg'ona, Samarqand viloyatlarida past ko'rsatkichda faoliyat olib borishgan. Ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan kelib chiqib, past ko'rsatkichli hududlarda qo'shimcha rag'batlantirish choralari ko'rish, muvaffaqiyatli hududlar tajribasini boshqa viloyatlarga targ'ib etish, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini takomillashtirish tavsiya etilad

### 3-jadval

#### **Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi(viloyatlar kesimida)**

| <b>Hududlar</b> | <b>2020</b> | <b>2021</b> | <b>2022</b> | <b>2023</b> | <b>2024</b> |
|-----------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Andijon         | 114052,7    | 147061,6    | 181245,0    | 224443,7    | 313805,5    |
| Buxoro          | 3402,9      | 4418,3      | 5291,9      | 6613,9      | 14098,5     |
| Jizzax          | 7732,0      | 9658,4      | 11756,0     | 14227,0     | 21239,3     |
| Qashqadaryo     | 6571,8      | 8287,1      | 9785,4      | 11831,0     | 16104,5     |
| Navoiy          | 3095,8      | 3980,1      | 4829,4      | 6469,2      | 9982,3      |



|                  |         |         |         |         |         |
|------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Namangan         | 7308,0  | 8999,2  | 10831,6 | 13068,7 | 22040,2 |
| Samarqand        | 3438,9  | 4382,7  | 5431,7  | 6570,8  | 7923,4  |
| Surxondaryo      | 5925,0  | 7882,8  | 9742,4  | 11829,1 | 21966,7 |
| Sirdaryo         | 9703,0  | 12607,9 | 15511,7 | 19140,4 | 25938,7 |
| Toshkent vil.    | 5331,3  | 6938,4  | 8279,3  | 9979,1  | 14658,8 |
| Farg'ona         | 1842,4  | 2227,9  | 2621,2  | 3111,2  | 5232,7  |
| Xorazm           | 11721,6 | 15117,3 | 17944,7 | 22148,6 | 28435,6 |
| Toshkent shahar  | 9758,6  | 12186,4 | 14564,9 | 17798,9 | 28265,6 |
| Jami             | 4127,2  | 5390,3  | 6500,1  | 7725,1  | 13691,2 |
| Jami (xizmatlar) | 34094,2 | 44984,8 | 58154,7 | 73930,7 | 84228,0 |

O'zbekistonda kichik biznes samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda elektron savdo, CRM va ERP tizimlari, bulutli xizmatlar va mobil ilovalar kabi raqamli yechimlar asosiy o'rin tutadi. Moliyaviy operatsiyalarni onlayn banking, elektron to'lovlar va kraudfanding orqali amalga oshirish biznes samaradorligini oshiradi. Marketing sohasida ijtimoiy tarmoqlar, maqsadli reklama va sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llaniladi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, 3D bosib chiqarish va "aqlli" omborxona tizimlarini joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Boshqaruv tizimini takomillashtirishda masofaviy ish platformalari va biznes jarayonlarni avtomatlashtirish vositalari samarali natija beradi.

Xulosa. Hududiy tahlillar natijasida Andijon, Toshkent shahri va Xorazm viloyatlari innovatsion texnologiyalarni joriy etishda yetakchilik qilayotgani aniqlandi. Samarqand va Farg'ona viloyatlarida esa texnologik rivojlanish sust kechmoqda. Bandlik ko'rsatkichlari tahlili Jizzax, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida kichik biznesda bandlik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ayrim hududlarda esa bandlik ulushi kamayish tendensiyasiga ega. Sohadagi asosiy muammolar sifatida moliyaviy resurslar yetishmasligi, malakali mutaxassislar taqchilligi va texnologik bilimlar darajasi pastligi aniqlandi. Moliyaviy yordamni kuchaytirish maqsadida imtiyozli kreditlar berish, grant mablag'larini ko'paytirish va investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish zarur. Kadrlar tayyorlash borasida o'quv kurslarini tashkil etish, amaliy treninglar o'tkazish va xorijiy tajribani o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Infratuzilmani yaxshilash uchun raqamli tizimlarni rivojlantirish, texnoparklar tashkil etish va innovatsiya markazlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Hududiy rivojlanishni ta'minlash uchun har bir hududning imkoniyatlarini



hisobga olish, ilg'or tajribani tarqatish va hududlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish tavsiya etiladi.

Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida quyidagi muammolarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining huquqiy-me'yoriy va tashkiliy asoslarini iqtisodiyotda turli omillar ta'sirida ro'y berayotgan o'zgarishlarga mos ravishda uzliksiz takomillashtirib borish;
- davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini oshirish;
- xorijiy mamlakatlar tajribasidagi yangi mexanizmlarni amaliyotda qo'llash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlashdagi mexanizmlar samaradorligini oshirish va moliyalashtirishning yangi manbalarini jalb etish negizida qulay investitsiya muhitini yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatining tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish va bu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, unda kooperatsiyani chuqurlashtirish zarurdir;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyatida menejment sifatini yaxshilash, korporativ boshqaruv tizimini qo'llash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati subyektlarini innovatsiyalarini yaratish va o'zlashtirishga moyilligini oshirish;

Shuningdek bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning malakalaridan iqtisodiyotning ustuvor sohasida funksional bo'lgan tadbirlar uchun respublikada qabul qilingan barcha imtiyozlarni innovatsion tadbirlarda ko'paytirish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azlarova D. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar ijobiy tajribalardan foydalanish. Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, 6/2013, 118-122 b
2. Ашуров, М. С. Ўзбекистон иқтисодиётини инновацион моделга ўтишининг айрим йўналишлари//Science problems.uz. - 2023. Ns S/3 (3)-2023. - С. 93-99
3. Ernazarova N.N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 betlar.



4. Kalonov M. "Kambag'allikni qisqartirish: imkoniyat va harakatlar qanday natija beradi?" "Xalq so'zi" gazetasining 2021 yil 11 fevral 30- soni.
5. Maxmudov O.X.. Oilalarda kambag'allikni qisqartirish omillari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabrdekabr, 2021 yil, 267-276 betlar.
6. Kholmammatov D.H., Boyjigitov S.K.. Marketing Problems In The Development Of Export Activities Of Small Business Entities. International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS), 31- 39 pp, 2020
7. Kholmammatov D.H. Develop Criteria for Selecting Distribution Channels in Small Business. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 134-145 pp, 2022
8. O'zbekistonda 2026-yilgacha kichik biznesni "uzluksiz" qo'llab-quvvatlash uchun 6 trillion so'm yo'naltiriladi.<https://www.gazeta.uz/ru/2023/09/19/business/>
9. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>
10. Алимов, Б. (2016). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ТИЗИМИДА ПРЕЗИДЕНТ ВА БОШ ВАЗИР МУНОСАБАТЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.
11. Алимов, Б. Б., & Валиева, Н. Х. (2024). ТАЪЛИМ СТРАТЕГИЯСИНИНГ САМАРАЛИ ТУРЛАРИ. Gospodarka i Innowacje., 46, 386-398.
12. Алимов, Б. Б. (2024). КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ РЕЙТИНГИНИ ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Gospodarka i Innowacje., 53, 125-138.
13. Shokhazamiy, S. S., & Alimov, B. B. (2019). THE METHOD OF COMPLEX RETRO-FORECAST ANALYSIS OF THE BALANCE SHEET OF INSURANCE COMPANIES FROM THE PERSPECTIVE OF THE INTERESTS OF THEIR INVESTORS. Economics and Innovative Technologies, 2019(4), 6.
14. Alimov, B. (2019). THE METHOD OF COMPLEX ESTIMATION OF THE ACCOUNTING BALANCE OF THE INSURANCE COMPANIES FROM THE PERSPECTIVE OF THEIR MANAGEMENT. International Finance and Accounting, 2019(2), 4.